

HUDUDIY RIVOJLANISHDA ICHKI VA TASHQI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Normamat Mallayev

Termiz davlat universiteti,

Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrası o'qituvchisi, dotsent.

Akmuratov Otamurod Bobomurod o'g'li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 2- bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20813639>

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining turizm siyosati va uning rivojlanish asoslari shuningdek hududiy rivojlanishda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish mexanizmlarini belgilash va ularni amalga oshirish, davlatning yuqori standartlarni qabul qilishi va ushbu standartlar darajasida rivojlanishi doirasidagi chora tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek turizmni barqaror rivojlantirishning ahamiyati va raqamli texnologiyalar orqali turizmni rivojlantirish va mamlakatni jahon miqyosidagi o'rnini yuksaltirish kabi vazifalarni qamrab oladi.

Kirish so'zlar: turizm, UNWTO, barqaror rivojlanish, ichki turizm, O'zbekiston 2030 strategiyasi, 2019 turizm konsepsiyasi, Jahon turizm tashkiloti (Un tourism), jahon iqtisodiy forumi (TTDI), Jahon barqaror turizm kengashi (GTSC), tashqi turizm, liberal viza, raqamli texnologiyalar.

**"Dunyo — bu kitobdir, sayohat qilmaganlar esa
uning faqat bir sahifasini o'qigan xolos".**

Sent Avgustin.

Hududiy rivojlanishda ichki va tashqi turizm mexanizmlari eng avvalo mamlakatni hududiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan dastur sifatida qaraladi. O'zbekiston 2030 strategiyasining ma'lum bir ustuvor yo'nalishlaridan biri turizmning yaim(yalpi ichki mahsulot)dagi hajmini 7%ga oshirish qilib belgilanganligi va so'nggi yillarda ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining, shuningdek chet el fuqarolarining toifalari, bo'lish muddatlari va maqsadlari bo'yicha dunyo amaliyotida keng qo'llaniladigan alohida viza rejimlarining mavjud emasligini ko'rsatmoqda¹.

Turizm (sayyohlik) — bu odamlarning doimiy yashash joyidan tashqariga, dam olish, sog'lomlashtirish, ma'rifiy, madaniy yoki boshqa maqsadlarda vaqtincha sayohat qilishi. Turizm mutaxassislar va xalqaro tashkilotlar (UN Tourism, WTTC va boshqalar) bo'yicha ma'lum bir necha omillar eng muhim hisoblanadi, xususan Tinchlik va siyosiy barqarorlik (Political Stability & Peace), Xavfsizlik va himoya (Safety & Security), viza siyosati, Infrazuzilma (Infrastructure), Tabiiy va madaniy jozibadorlik (Attractions), Iqtisodiy omillar(barqaror iqtisodiyot valyuta kursining barqarorligi va insvestitsiyalar va davlat qo'llab quvvatlashi), Marketing va raqamlashtirish, Hukumat siyosati va shu kabi boshqalarni oz ichiga oladi.

¹ <https://share.google/BpSWbtQJMPNrZJkQY>

Butun jahon turizm tashkiloti (Unwto or UN tourism) – Bmtning Xalqaro sayyohlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha jahondagi yagona tashkilotdir. Ushbu tashkilot jahon mamlakatlari iqtisodiyoti turizm industriyasini rivojlantirish, do'stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida xalqaro turizmga yordam ko'rsatish, insonlarning xalqaro erkin harakati yo'lidagi to'siqlarga qarshi kurashish².

GSTC (Global Sustainable Tourism Council — Jahon Barqaror Turizm Kengashi) — 2007-yilda BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) va Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) qo'llab-quvvatlashi bilan tashkil etilgan xalqaro notijorat tashkilot. U turizm sohasida global barqarorlik standartlarini ishlab chiqadi va boshqaradi. GSTC standartlari:

Barqaror boshqaruv (sustainable management); Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar (Socio-economic Impacts); Madaniy merosni saqlash (Cultural Impacts); Atrof-muhitni muhofaza qilish (Environmental Impacts).

GSTC Destination Criteria (v2.0) rasmiy ravishda o'zbek tiliga tarjima qilingan va O'zbekiston bu standartlarni barqaror turizm siyosatida va loyihalarda asos sifatida qo'llamoqda³.

Biroq O'zbekistonda GTSC tomonidan to'liq akkreditatsiyadan va sertifikat olgan destinatsiyalar(manzillar) yo'q. Ya'ni O'zbekiston GSTCning standartlari doirasida amal qiladi, ammo rasmiy sertifikatlash hozirda cheklangan, O'zbekiston GSTCning rasmiy akkreditatsiya jarayonidan o'tmagan va milliy majburiy dastur yaratmagan.

Jahon iqtisodiy forumi (WEF) Travel & Tourism Development Index (TTDI)- sayyohlik va turizm sohasining barqaror va chidamli rivojlanishini baholaydigan muhim xalqaro reyting.

U turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan omillar va siyosatni o'lchaydi. Indeks 5 ta asosiy o'lchov (dimension), 17 ta ustun (pillar) va 102 ta ko'rsatkichdan iborat.⁴

1.1 Index overview

The index is comprised of five dimensions, 17 pillars and 102 individual indicators, distributed among the different pillars. However, the five dimensions are not factored into the calculation of the index and are used only for presentation and categorization purposes.

FIGURE 1 TTDI framework



² UN Tourism | Bringing the world closer <https://share.google/s2oKg9OeOnEGSXDUB>

³ <https://www.gstc.org/>

⁴ <https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/>

Bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyodagi eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri deb tan olingan (eng yuqori o'sish ko'rsatkichlaridan biri).⁵



Yuqoridagilar kabi standartlardan yuqori natijalarga erishish davlatni turizm sohasida ishonchli va rivojlangan davlatlar safida turishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston boy tarixiy-madaniy merosga ega: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Mamlakatda 7000 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari bor. Hududiy rivojlanishda turizm muhim strategik vosita hisoblanadi.

U mintaqalardagi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, ish o'rinlarini yaratadi, infratuzilmani yaxshilaydi, aholining daromadini oshiradi va madaniy merosni saqlashga yordam beradi.

O'zbekistonda ichki turizm (mamlakat fuqarolarining o'z hududida sayohati) va tashqi turizm (xorijiy sayyohlarning kirishi hamda o'zbekistonliklarning chet elga chiqishi) hududlarni diversifikatsiya qilish va barqaror rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biridir.

⁵ https://www3.weforum.org/docs/WEF_Travel_and_Tourism_Development_Index_2024.pdf



Viza rejimining soddalashtirilishi: “To’siqsiz turizm” infratuzilmasini kengaytirish doirasida 90 dan ortiq davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, elektron viza (e-visa) va qo‘shimcha viza turlari (Student visa, Medical visa va boshqalar) joriy etildi. Shuningdek 2019-2025 yillar doirasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. (05.01.2019y). 2022-yil sentyabridan «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!» dasturi doirasida ichki turizm uchun «Keshbek» tizimi yo‘lga qo‘yildi.


Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) bilan hamkorlikda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzurida Xalqaro turizm akademiyasi Samarqandda tashkil etilishi belgilandi. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) shafeligidagi Xalqaro turizm akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida” hukumat qarori loyihasi e‘lon qilindi.⁶

O‘zbekiston jahon turizm tashkiloti malumotlariga ko‘ra 2025 dunyo bo‘ylab kirish turizmi bo‘yicha rivojlanayotgan yettita yo‘nalish qatoridan joy oldi. xalqaro sayyohlar oqimi 73% ga oshdi.⁷

O‘zbekiston yuqori sur‘atlarda o‘shish qayd etgan bo‘lsa-da miqdoriy o‘shish bilan birga sifat va barqarorlik jihatidan bir qancha kamchiliklar mavjud. Xususan barqarorlik va ekologik muammolar mavsumiylik, infratuzilma muammolari transportlar va yo‘llarning talab darajasida emasligi, xizmat ko‘rsatish sifati pastligi va kadrlar yetishmovchiligi standartlarga to‘liq javob bermasligi ya’ni amalda belgilangan xalqaro darajadagi standartlar doirasida mehmonxonalar kamligi va xalqaro darajada xizmat ko‘rsatish sifati past ekanligi xalqaro darajadagi kadrlarning yetishmasligi, mavsumiy turizmni va salomatlik turizm sohasidagi turistik manzillarni rivojlantirish va xalqaro standartlar talabi doirasida turistik maskanga aylantirish va ularni bog‘lab turadigan tur xizmatlar tashkil etish, xususan ushbu doirada yo‘l va infratuzilma muammolarini bartaraf etish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Shuningdek turizmni rivojlantirishda davlat xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalari orqali mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bilan ushbu sohani rivojlantirish orqali hududiy ichki va tashqi turizmni rivojlantirishning muhim belgilari sifatida qaralmoqda.

⁶ <https://xabar.uz/uz/tahlil/songgi-sakkiz-yilda-ozbekistonda-turizm>

⁷ <https://www.euronews.com/travel/2025/12/19/unwto-uzbekistan-ranks-among-worlds-fastest-growing-tourism-destinations-in-2025>



Shuningdek 2024 yil qabul qilingan respublikaga xorijiy turistlar oqimini oshirish chora tadbirlar tog'risidagi farmon doirasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan rejalar turizm rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan turizm markazlardagi hududlarda tun-u kun ishlaydigan restoran, kafe va umumiy ovqatlanish shoxobchalari faoliyati; sog'lomlashtirish va "SPA" xizmatlari, suzish havzalari (basseyn) faoliyati yo'lga qo'yiladi; b) savdo-ko'ngilochar majmualarda: boj olinmaydigan savdo do'konlari ("duty free") va qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotilgan ayrim turdagi tovarlarga "tax free" tizimi qo'llaniladigan chakana savdo shoxobchalari; milliy ipak matolari hamda hunarmandchilik (suvenir) mahsulotlari savdosi; milliy zargarlik mahsulotlari va O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan, qimmatbaho metallardan tayyorlangan (10, 20, 50, 100, 200, 500 gramm va 1 kilogrammli oltin quymalar) o'lchovli quymalar chakana savdosidan iborat bo'lgan "oltin yo'lak" savdo qatorlari; yirik xalqaro brendlarning sifatli mahsulotlari savdosi; to'y marosimi tadbirlarini tashkil etish uchun hudud va kinoteatrlar faoliyati yo'lga qo'yiladi.⁸

Biroq ushbu belgilangan dasturlar to'liq bajarishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligi sababli davlat xususiy sherikchilik (dxsh) loyihasi doirasida amalga oshirilishi maqsadga erishishda samaraliroq usul ekanligini ko'rib chiqilmoqda. Masalan, Fransiyada sog'liqni saqlash sohasidagi DXSH loyihasini amalga oshirish misoli allaqachon darslikka aylandi: Sud Francilien klinik markazining qurilishi, uning umumiy qiymati 315 million evroni tashkil etdi.

DXSH kontsessiya sxemalari Buyuk Britaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada yo'l qurilishida keng qo'llaniladi. Turizmga DXSh roli bo'yicha birinchi tadqiqotlardan biri 2000 yilda UNWTO tomonidan amalga oshirilgan. Dunyoning 90 ta davlatining so'rovda qatnashgan davlat va xususiy tuzilmalarining 98 foizi raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda DXSh rolini juda muhim deb ta'kidladi.

2020 yilda DXSh loyihalarining umumiy qiymati bo'yicha 5,1 mlrd. yevro ko'rsatkichi bilan Turkiya yetakchi bo'lib turibdi (2019 yilda - 6 mlrd. yevro). Ayni paytda eng ko'p loyihalar Fransiyada amalga oshirildi - 15 ta loyiha moliyaviy yopish bosqichidan o'tdi.

⁸ <https://share.google/BpSWbtQJMPNrZJkQY>

Loyiha Yevropa bozorida amalga oshirilayotgan yirik DXSh loyihalari [1]

1-jadval

T/r	Mamlakat	Obekt	Loyiha qiymati
1	Turkiya	Channakkale ko'prigi	3,1mlrd. yevro
2	Turkiya	Anqara-Nigde avtomagistrali	1,2mlrd. yevro
3	Fransiya	Jirondadagi keng polasali foydalanish tarmog'i	1,2 mlrd. yevro
4	Niderlandiya	Blankenburg tunneli	1 mlrd. yevro
5	Niderlandiya	Rotterdamdagi A16 shossesi	930 mln. yevro
6	Niderlandiya	Afsleyktdeyk dambasi	810mln. yevro
7	Turkiya	Bilkent universitetidagi laboratoriya	711 mln. yevro
8	Germaniya	Noyruppin-Pankov A10/24 shossesi	652.mln. yevro

Fransiya va Turkiya tajribasidan ko'rib turibmizki, DXSH loyihalari orqali turizmni rivojlantirishda samarali usul sifatida baholamoqda va davlat uchun riskni kamaytirib sohani xususiylashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish aeroportlarni DXSH asosida rivojlantirish va natijalarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

“Turizm halqasi“ yo'llarini kengaytirish, xalqaro brend mehmonxonalar va brend do'konlar tizmini va xalqaro standartlar darajasida ximat ko'rsatish xodimlari uchun mutaxasislar jalb qilish kabi sohalarni rivojlantirishni amalga oshirishda dxsh loyihalarini qo'llab-quvvatlash natijasida turizmni rivojlantirish hududiy rivojlanishni amalga oshirishga erishishda muhimligicha qolmoqda.

Shuningdek barqaror turizmni rivojlantirish — GSTC (Global Sustainable Tourism Council) Destination Criteria ni milliy darajada joriy etish, ekologik sertifikatsiyani kuchaytirish, marketing va brendingni milliy tarixiy turizm markazlaridan foydalangan holda “Buyuk Ipak yo'li” brendini kuchaytirish, xalqaro ko'rgazmalarda faol ishtirok etish orqali hududiy turizmni rivojlantirish va rivojlanishda dxsh loyihalari shuningdek chet el mutaxasislari va investorlarini jalb qilish orqali ichki va tashqi turizmni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi kabi standartlarda yuqori natijalarga erishish va ularni qabul qilish doirasida ularni rivojlantirishda maqsadga muvofiq bo'lishi davlatning turizmi rivojlangan davlatlar qatorida bo'lishini taminlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga foyda olib kelish ya'ni yalpi ichki mahsulot hajmi doirasida turizmni rivojlantirish, shuningdek turizm sohasi hududiy birliklarda rivojlansa hududlarning har tomonlama rivojlanishi ta'minlaydi.

Turizmni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish aholi bandligini ta'minlash iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Turizm sohasini shunchaki sayohat yoki dam olish emas bevosita mamlakatning jahon miqyosidagi e'tirof etilishda muhimligi va davlatning tinchligi va ishonchli ekanligini ko'satib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turizm konsepsiyasi 2019
2. ¹ <https://share.google/BpSWbtQJMPNrZJkQY>
3. <https://share.google/s2oKg9OeOnEGSXDUB>
4. ¹ <https://www.gstc.org/>
5. ¹ <https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/>
6. https://www3.weforum.org/docs/WEF_Travel_and_Tourism_Development_Index_2024.pdf

7. ¹ <https://www.euronews.com/travel/2025/12/19/unwto-uzbekistan-ranks-among-worlds-fastest-growing-tourism-destinations-in-2025>
8. <https://kun.uz/65526858>
9. ¹<https://share.google/BpSWbtQJMPNrZJkQY>